

# "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida 2025-yilning 2-choragida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan ma'lumotnoma

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/anticorruption/report/o-zkiyosanoat-aj-va-tarmoq-korxonalarida-2025-yilning-2-choragida-korrupsiyaga-qarshi-kurashish-sohasida-amalga-oshirilgan-ishlar-yuzasidan-ma-lumotnoma>

"O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarining Korrupsiyaga qarshi kurashish va Komplayens boshqarmalari tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida 2025-yilning o'tgan 2-choragida o'tkazilgan chora-tadbirlar Qonunchilik va ichki-me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida amalga oshirildi.

Jumladan, hisobot davrida komplayens nazorat va korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar "O'zkiyosanoat" AJning ijro apparati, "Navoiyazot", "Dehqonobod kaliy zavodi", "Maksam-Chirchiq", "Ammofos-Maksam", "O'zkiyosanoatloyiha" AJlari hamda "Qizilqum fosforit kompleksi", "O'zkiyoiimpeks" MCHJlarida amalga oshirildi.

Hisobot davrida "O'zkiyosanoat" AJ va uning tarkibiy korxonalariga ishga yangi qabul qilingan 455 nafar xodim manfaatlar to'qnashuvini oldini olish maqsadida tekshirildi.

Shuningdek, 76 nafar rahbar hodim va korrupsiyaga qarshi ichki tuzilma hodimlarining malakasi oshirildi. Jumladan, 50 nafar rahbar hodim ISO 31000:2018 "Xavflarni boshqarish" xalqaro standarti va 26 nafar korrupsiyaga qarshi ichki tuzilma hodimlari Korrupsiyaga qarshi virtual akademiya portali orqali "Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining samarali ishlashini ta'minlash" mavzusida maxsus chuqurlashtirilgan o'quv kursida o'z malakalarini oshirdilar.

Bundan tashqari, korxonalarda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari tomonidan 20 dan ortiq korrupsiyaga qarshi kurashish va manfaatlar to'qnashuvini oldini olishga bag'ishlangan mavzularda seminarlar va davra suxbatlari o'tkazilib, ularda jami 850 nafardan ortiq hodim nazariy bilimlarga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq "E-Antikor.uz" elektron platformasiga "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida joriy yilning o'tgan 6 oyi davomida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilgan ishlarga oid ma'lumotlar 5 ta yo'nalishda 29 ta maxsus indikatorlar asosida platformaga birlashtirildi.

Ta'kidlab o'tish lozimki, joriy yilning 12-iyun kuni "O'zkiyosanoat" AJ "CERT International" xalqaro akademiyasi tomonidan muvaffaqiyatli auditdan o'tib, korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi nufuzli xalqaro standart - ISO 37001:2016 sertifikatiga ega bo'ldi.

Hisobot davrida "O'zkiyosanoat" AJ va uning tarkibiga kiruvchi korxonalarda o'tkazilgan Davlat haridlari doirasida 3500 dan ortiq xo'jalik shartnomalari tuzilgan bo'lib, barchasiga korrupsiyaga qarshi kurashish talablari kiritilgan.

O'tgan davrda "O'zkiyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarining ishonch aloqa kanallari orqali jismoniy va yuridik shaxslardan 291 ta murojaat kelib tushgan, shundan 12 tasi korrupsiyaga oid bo'lib, barchasi bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazildi. Uning natijasida 10 nafar xodimga nisbatan intizomiy chora qo'llanildi.

Shuningdek, tizimda 52 marotaba rejali nazorat tekshiruvlari o'tkazildi, natijada 24 ta holat bo'yicha

to'plangan materiallar huquqni muxofaza qiluvchi idoralarga huquqiy baho berish uchun taqdim etildi. Bugungi kunda 20 ta holat bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atilgan va tergov harakatlari olib borilmoqda. 2025-yilning ikkinchi choragi davomida "O'zkimyosanoat" AJ va tarmoq korxonalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlar tarmoqda ochiqlik, mas'uliyat va halollik tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.